

BALIQ OVLASHNING MEXANIZATSIYALASHTIRILGAN USULLARI

Abduvasikov Islombek Abdurasul o'g'li

TDAU Umumiy zootexniya va veterinariya kafedrası o'qituvchi-stajyori.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston hududida joylashgan daryo va o'zanlardagi baliqlarni ovlash uchun mexanizatsiyalashtirilgan qurilmalardan samarali foydalanish qonun-qoidalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Mexanik, tejamkor, samaradorlik, kranli tizimlar, havza, suv omborlari, brenden to'rlari, venter to'rlari, tarmoqli yelkanlar, avtomatik tizim,

Аннотация: В данной статье рассказывается о правилах эффективного использования механизированных приспособлений для ловли рыбы в реках и ручьях, расположенных на территории Узбекистана.

Ключевые слова: Механические, экономичные, крановые системы, бассейн, резервуары, бреденские сети, венгерные сети, сетевые паруса, автоматическая система.

Annotation: This article talks about the rules for effective use of mechanized devices for catching fish in rivers and streams located on the territory of Uzbekistan.

Key words: Mechanical, economical, efficiency, crane systems, basin, reservoirs, brenden nets, venter nets, net sails, automatic system.

Kirish. Baliqchilik mamlakat aholisini parhez go'sht mahsuloti bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Chunki baliq go'shti tarkibi inson organizmi uchun zarur bo'lgan biologik faol moddalar, mineral moddalar va boshqa turdagi yengil hazm bo'luvchi to'yimli moddalarga boy. Baliqchilikda ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlashda sohaga ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda, baliqchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirib borish va mamlakat aholisining oziq-ovqatga,

sanoatning esa xom-ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir. Mazkur vazifani tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar darajasida amalga oshirish uchun iqtisodiy rivojlanishning hozirgi talablaridan kelib chiqqan holda agrar siyosat yo'nalishlarini belgilab olish, bozor mexanizatsiyalashning tarkib topish xususiyatlari, o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari, resurslar potentsialidan unumli

foydalanish, harajatlarni pasaytirish va daromadni oshirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda investitsiyalardan unumli foydalangan holda, hamda baliqchilik xo'jaliklarini ichki imkoniyatlaridan ilmiy izlanishlar asosida baliq mahsulotlari bozorini shakllantirish talab qilinadi. Keyingi yillarda Respublikada aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash. Shu jumladan, sifatli baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bo'yicha bir qancha dasturiy chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta'minlash. aholi farovonligini amalda yuksaltirish va fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashda muhim dastur amal bo'lib xizmat qilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi "Baliqchilik larmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 2939-sonli, 2018-yil 3-fevraldagi "2018-yilda baliq mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3505-sonli, 2018-yil 6-apreldagi "Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3657-sonli va 2018-yilda 6-noyabrdagi "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ- 1005-sonli Qarorlarida aholini ekologik toza baliq mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berildi. Respublikada baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda hajmlarini oshirish, sohani tartibga solish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib. ularning ijrosini sifatli va puxta ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Bugun baliqchilik xo'jaliklarida boqib ko'paytirilayotgan turli xildagi baliqlar organizmining hujayralari, to'qimalari va organlari faoliyatidagi tashqi muhit (suv) ta'sirida bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot obyekti va uslublari. Baliq ovlashining mexanizatsiyalashtirilgan usullarini hozirgi kundagi ahvoli va rivojlanish istiqbollari qishloq va suv xo'jaligini

mexanizatsiyalashtirilgan tarmoqlariga tadbiq etish hamda sanoatda baliqchilikni rivojlantirish usllari.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra hozirgi vaqtda O'zbekiston suv havzalarida baliqlarni ovlash uchun qo'llanilib kelinayotgan, mexanik va avtomatlashtirilgan qurilmalarni ishlash prinsplarini o'rganib chiqish. Baliq ovlashning mexanizatsiyalashtirilgan usullari — bu baliqchilik sohasida baliq ovlashni samarali va unumli tarzda amalga oshirish uchun turli mexanizm va texnologiyalarni qo'llashni anglatadi. Bunday usullar baliq ovlashni tezlashtirish, samaradorlikni oshirish va resurslardan tejamkor foydalanish uchun ishlab chiqilgan. Quyida baliq ovlashning ba'zi mexanizatsiyalashtirilgan usullari keltirilgan: 1. Tarmoqli va kranli tizimlar: Tarmoqli yelkanlar: Suvning turli qatlamlarida harakatlanayotgan baliqlarni ushlash uchun maxsus tarmoqlaridan foydalaniladi. Mexanizatsiyalangan tizimlar, baliqning ko'p miqdorini qisqa



vaqt ichida olishga imkon

beradi. Kranli tizimlar: Baliqni suvdan chiqarish va qayta ishlashda kranlar yordamida tezkorlikni oshirish mumkin. 2. Avtomatik baliq ovlash mashinalari: Bu usulda baliqchilikda ishlatiladigan avtomatik tizimlar baliqni ushlash, yig'ish va qayta ishlash jarayonlarini boshqaradi. Masalan, avtomatik tarmoqni qo'llash, baliqning har bir ulushini tezda to'plashga imkon beradi. 3. GPS va sonar tizimlari: GPS tizimlari baliq ovlash hududlarini aniq belgilashga yordam beradi, bu esa baliqchilarni maqsadli hududga yo'naltirishga imkon beradi. Sonar tizimlari baliqning joylashuvini aniqlash va ularni tezda topish uchun ishlatiladi. 4. Fabrikatsiya va qayta ishlash tizimlari: Katta baliqchi kemalari ichida avtomatlashgan qayta ishlash tizimlari mavjud bo'lib, baliqni ushlashdan so'ng uni tezda tozalash, saqlash va bo'limlarga ajratish mumkin. 5. Baliqchilikni sun'iy intellekt yordamida boshqarish: Yangi texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, baliq ovlash

jarayonlarini optimallashtirish va resurslarni samarali boshqarish uchun qo'llanilmoqda. Masalan, baliqchilikda sun'iy intellekt tizimlari, baliqning turini, hajmini va migratsiya yo'nalishlarini aniq bashorat qilishga yordam beradi. 6. Qayta ishlash va saqlash tizimlari: Baliqni ushlashdan keyin, uni qayta ishlash va saqlash uchun ishlatiladigan avtomatlashtirilgan tizimlar samarali bo'lib, baliqning sifatini saqlab qolish va tezda bozorga yetkazib berishni ta'minlashga yordam beradi. Bu texnologiyalar baliqchilikda samaradorlikni oshirish, baliq resurslaridan maksimal darajada foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan. Suvi to'la chiqmaydigan havza, suv omborlari va kollaridan baliqlarni yig'ishtirib olish darajasi, suvdagi jami baliqlarning amalda 70-80% ini tashkil etadi va xo'jaliklardagi eng ko'p mehnat xarajatlariga to'g'ri keladi. Shuning uchun baliq ovlash jarayonlarini samaradorligi xo'jaliklarning rentabelligini ta'minlashdagi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Baliq ovlashning samaradorligini quyidagi mezonlar asosida baholash

Usul turi	Texnika va uskunalar	Kunlik o'rtacha hosildorlik (kg)	Ishtirokchilarga bo'lgan talab	Yonilg'i/energiya sarfi	Samaradorlik darajasi
Tarmoq bilan ovlash	Motorli qayiq, to'rlar	500	3	O'rta	Yuqori
Elektr baliq ovlash	Elektrogenerator, tarmoqlar	300	2	Past	O'rta
Mexanik to'rtashlash	Traktorli qayiq, mexanik to'r tizimi	800	4	Yuqori	Juda yuqori

Sov	Nasos	20	1	Past	O'rta
uruv	filtrlash	0			
uskunasi	moslamasi				
bilan					

Shu sababli havza baliqchiligida suvi to'la chiqarib yuboriladigan havzalarni loyihalash va xo'jaliklarni tashkil etish asosida rejalashtirish katta ahamiyatga egadir. Kichik havzalarda baliq ovlashda to'rlarning "hredni" valokusha turlari ishlatiladi. Bu to'rlar nevod to'rlariga o'xshash bo'lib, asosan oichamlari bilan ulardan farq qiladi. Ularning uzunligi bredden to'rida 15-20 m, valokushada 50-60 m. Bu to'rlarda "motya" ya'ni uzun to'r xaltasi bo'lmaydi va tuzilish jihatdan oddiy

vayengil to'rlar hisoblanadi. Baliqlarni suv havzalaridagi baliq ushlash qurilmalarida ovlash uchun, baliq ushlash qurilmalariga yig'ilib to'dalangan holda, qurilmaga qamaladi. Havzalarni qalin o'simliklar va suv o'tlari qoplagan, uning tagida to'siqlar ko'p bo'lgan hollarda harakatanib ishlatiladigan nevod va bredni to'rlarini ishlatib boimaydi. Shuning uchun turg'un o'rnatiladigan «venter» turidagi to'rlardan foydalaniladi. Turg'un o'rnatiladigan to'rlar suv chuqurligi 3 m gacha boiganda qoziqlar yordamida, undan chuqur bo'lganda maxsus tosh yoki yakorlar yordamida suv tagiga mahkamlanadi. To'rlarning yuqori qismiga po'kak yoki buy o'rnatiladi. Ushbu turdagi to'rlardan 2-4 tasi bir oqim yo'nalishiga qarab qator qilib, 3 ta qoziq yordamida joylashtiriladi. Yo'naltiruvchi qismi konusli tor yoiak bilan tugaydi va undan baliq qaytib chiqmaydi. Ushbu turdagi to'rlar har kuni erta tong saharcha va quyosh botishida tekshirilib, tushgan baliqlar yigishtirib olinadi. Baliq ovlash to'ralari ish tugashi bilan tozalaniib yuviladi va quritish uchun soyaga osib qo'yiladi. Quritilmagan to'rlarni yig'ishtirilgan yoki uyum holda moslamaga qo'yilmaydi. Belgilangan vaqtda baliqchilik asboblari va inventarlar quruq holda dezinfeksiyalanadi, ishlatishdan oldin quritiladi. Hozirgi vaqtda suvi tola chiqarilmaydigan havzalar, suv omborlari va ko'llarda elektrod usulida baliq ovlash keng ishlatilmoqda.

Xulosa. Baliq ovlash jarayonini mexanizatsiyalashtirish baliqchilik sohasida yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bu usullar an'anaviy usullarga nisbatan bir qancha

afzalliklarga ega: 1. Ish unumdorligi oshadi-maxsus uskunalar yordamida qisqa vaqt ichida ko'proq baliq ovlash mumkin bo'ladi; 2. Mehnat sarfi kamayadi-inson mehnatini kamaytirib, jismoniy zo'riqishni yengillashtiradi; 3. Xafsizlik darajasi yuqori-zamonaviy uskunalar suvda ishlashda xavfsizroq sharoit yaratadi; 4. Ekologik nazorat- ilg'or texnologiyalar baliq zaxiralarini asrash va nazorat bilan ov qilish imkoniyatini beradi; 5. Sifat nazorati-baliqni yangi holatda saqlash va qayta ishlash mexanizmlari tufayli mahsulot sifati yaxshilanadi. Xulosa qilib aytganda, baliq ovlashning mexanizatsiyashgan usullari ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, iqtisodiy foydani ko'paytiradi hamda barqaror va ekologik muvozanatni saqlagan holda baliqchilikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1- maydagi PQ- 2939-son. "Baliqchilik larmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PQ-3505-son. "2018-yilda baliq mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi PQ-3657-son "Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-ladbirlar to'g'risida" gi Qarori.
5. Ro'ziqulov R. "Baliqlar fiziologiyas", - Toshkent-2023. – 4-bet.
6. Akramboyev R. "Baliqchilikni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish", - Namangan-2023. – 5-bet.
7. Shuvonkulov Sh. Abduganiyev Z. "Baliqchilik gidroinshoatlari va mexanizatsiyalash", - Toshkent-2021. – 176, 177, 185-betlar.